



## TO WHAT EXTENT CAN COMPLIANCE CONTROL IN THE HEALTH CARE SYSTEM ELIMINATE CORRUPTION?

**Abdujabbarov Djalaliddin Kadirovich**

Chief Specialist of Compliance, Internal Audit and Financial Control Service in the organizational structure of the central office of the Ministry of Health

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5218621>

## SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KOMPLAYENS

## NAZORATI KORRUPSIYAGA QAY DARAJADA BARHAM BERA OLADI?

**Abdujabbarov Djalaliddin Kadirovich**

Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasida Komplayens, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati Bosh mutaxassisi

1963-yil AQShning Delaver shtatida sud bo'lib o'tdi, o'shanda shtat oliy sudi Graham va Allis-Chalmers kompaniyasi ustidan hukm chiqarib, unda direktorlar qonun talablarining bajarilishini ta'minlovchi mexanizmni yaratishga mas'ul emasligi qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, Oliy sud kompaniyalar davlat tomonidan amalga oshirilgan ichki nazorat tizimlaridagi tekshiruvlar va da'volardan also qo'rqmasligi kerak degan fikrni ilk bor shakllantirdi. Bu voqeani komplayens rivojlanish tarixiga asos bo'ldi deya olamiz. Komplayens nazorati deganda, boshqaruv, nazorat tizimi, sanoat uyushmalari, o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarning qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlar, qoida va standartlarga rioya qilish va qilmaslik xavfi bilan bog'liq korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar beruvchi nazorat tizimining bir qismi tushuniladi.

Ushbu strategiya nafaqat kelajakni prognoz qilishga, balki uni shakllantirayotgan mamlakat manfaatlari uchun mos bo'lgan farovon kelajakni faol shakllantirishga asoslangan boshqaruv jarayonini<sup>1</sup> ham o'zida aks etadi.

Xalqaro miqyosda keng qo'llanilib kelinayotgan komplayens nazorat tizimining korrupsiya xavflarini oldini olishda samaradorligi va ta'sirchan jihatlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimida ham loyihani tajriba tariqasida joriy etish ishlari amalga oshirildi. Sog'liqni saqlash vazirligida komplayens, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati vujudga kelib, tizim tomonidan soha xodimlari orasida suiste'molchilik, byudjet mablag'larining talon-taroj qilinishi va boshqa korrupsiyaviy hatti-harakatlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha dastur ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar asosida ish olib borilmoqda.

<sup>1</sup> Бауэр В.П., Еремин В.В. Комплаенс-стратегирование как институт регулирования социально-экономической и национальной

безопасности: опыт США. // Экономическая безопасность, №:3, 2020. – С. 288.



Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiya xavfi asosan quyidagi yo'nalishlarda yuqori bo'ladi:

- Klinik protokollarni shakllantirish va tasdiqlash;

- Muhim dori-darmonlarning ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash;

- Davlat byudjetining tibbiyot muassasalari tomonidan tibbiy xizmatlar ko'rsatilishini sifat nazorati;

- Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi boshliqlarni, shuningdek bosh vrachlar, bosh vrach o'rinbosarlari va bosh tibbiyot mutaxassislarini tanlash va tasdiqlash;

- Davolash buyurtmalarini tarqatish;

- Dori vositalari va tibbiyot texnikasini markazlashtirilgan xarid qilish va tarqatish (investisiya dasturlaridan tashqari);

- Dori vositalarini shakli bo'yicha sotib olish va tarqatish;

- Sog'liqni saqlash muassasasining o'z mablag'lari hisobidan dori vositalari va tibbiyot texnikasini sotib olish va tarqatish;

- Gumanitar ( xayriya) yordamini olish va tarqatish;

- Xususiy tibbiyot muassasalarining tibbiy faoliyatini litsenziyalash va litsenziyalash nazorati (rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish);

- Dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va sertifikatlash.

Ushbu amaliyot tufayli tizimning mansabdor shaxslari tomonidan korrupsiyaga oid hatti-harakatlar sodir etilganligi yuzasidan murojaatlar alohida nazoratga olinib, ko'rsatma asosida o'rganishlar o'tkazish amaliyoti ijobiy

natijalar berdi. Raqamlarga murojaat qilsak, birgina O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligida komplayens nazorat tufayli korrupsiyani oldini olish, qonun buzilish holatlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi, o'rganish va monitoringlar natijasiga ko'ra, tizimdagi 29 nafar mansabdor shaxs bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 127 nafar shaxsga nisbatan "xayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi 12 ta muassalarda moliyaviy xatoliklar 5677,4 mln. so'mni, shundan kamomad va o'zlashtirishlar 690,2 mln so'mni tashkil etganligi aniqlangan.

Ta'kidlash joizki, komplayens tizimini joriy etish tizimga jiddiy cheklovlar qo'yishni ham anglatadi va hamma mamlakatlarda bu qiyin va og'riqli kechgan, shuning uchun chet ellik hamkasblar tomonidan to'plangan amaliy tajribani, qonunchilikni, sud amaliyotini tahlil qilish va ularning asosida adaptatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish to'g'riroq bo'ladi.<sup>2</sup>

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi. Jumladan, mazkur tizim korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirishga olib keladi.

<sup>2</sup> Крохина Ю.А. Юридическая сущность комплаенс-контроля в хозяйствующих субъектах с

государственным участием // Юридическая наука. №:1, 2019. – С. 39.



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бауэр В.П., Еремин В.В. Комплаенс-стратегирование как институт регулирования социально-экономической и национальной безопасности: опыт США. // Экономическая безопасность, №:3, 2020. – С. 288.
2. Крохина Ю.А. Юридическая сущность комплаенс-контроля в хозяйствующих субъектах с государственным участием // Юридическая наука. №:1, 2019. – С. 39.